

**Uchinchi renessansni shakllantirish sharoitida turizm sohasi
samaradorligini oshirishda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni
takomillashtirish muammolari**

Ablakulova Iroda Kamolidinovna- *“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti ingliz tili o‘qituvchisi*

Allayorov Dilshodbek Jasurbek o‘gli - *“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Hozirgi davrda turizm sohasi mamlakat iqtisodiyotining asosiy strategik tarmoqlaridan biriga aylanayotganligini hisobga olgan holda, Buyuk ipak yo‘lida turizm yo‘nalishining asosiy jozibador markazlaridan biri sifatida respublikaning ijobiy qiyofasini shakllantirishni ta‘minlovchi, yuqori malakali va jahon turizm industriyasida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga zarurat yuzaga kelmoqda. Mazkur maqolada turizm sohasida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda duch kelishimiz mumkin bo‘lgan muammolar to‘g‘risida fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so‘zlar: Uchinchi Renessans, turizm, raqobatbardosh kadrlar, Buyuk Ipak yo‘li.

Annotation: At present, the tourism industry is becoming one of the main strategic sectors of the economy, there is a need to train highly qualified and competitive personnel in the global tourism industry, which will create a positive image of the country as one of the main attractions of tourism on the Great Silk Road. This article is to discuss the challenges we may face in training competitive professionals in the tourism industry.

Keywords: Third Renaissance, Tourism, Competitive Personnel, Great Silk Road.

Аннотация: В настоящее время, индустрия туризма становится одной из основных стратегических отраслей экономики, возникает необходимость в подготовке высококвалифицированных и конкурентоспособных кадров в мировой индустрии туризма, что позволит создать положительный имидж страны как одной из главных достопримечательностей страны. туризм на Великом шелковом пути. В данной статье рассматриваются проблемы, с которыми мы можем столкнуться при подготовке конкурентоспособных специалистов в сфере туризма.

Ключевые слова: Третий Ренессанс, туризм, конкурентоспособные кадры, Великий шелковый путь.

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida ta’kidlanganidek, “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm- fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim”¹.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va aholi farovonligini oshirish sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasida bandlikni oshirish bugungi kunda mamlakat iqtisodiyoti oldida turgan muhim masalalardan biridir. Xususan, mulkchilikning asosiy harakatlantiruvchi kuchi, deb e’tirof etilayotgan xizmat ko‘rsatish sohasidagi bandlikni oshirishning istiqbolini belgilash, tashkiliy-iqtisodiy

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга murojaatnomasi. Халқ сўзи. 2020 йил 30 декабрь. No276. 2-бет

mexanizmlarini takomillashtirish va shu masala yuzasidan ilmiy jihatdan asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kundagi muhim yo'nalish bo'lib hisoblanadi. Ana shularni hisobga olib, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, hozirgi kunga qadar zamon talablariga javob beradigan turistik xizmatlarni tashkil etish va rivojlantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Bu borada **O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.M.Mirziyoyev** "Turist sayohat qilishi, ichki ishlar idoralarida sarson bo'lmasligi kerak. Agar biz turizm hisobiga ish o'rinlari ochamiz desak, turistga shart qo'yish emas, balki sharoit yaratishimiz zarur"², deb ta'kidlaganlar.

Turistik xizmatlar saqlanmasligi. Bu ushbu xizmatlarni saqlash mumkin emasligidir. Turistik xizmatlarning hayotiy davri moddiy tovardan tubdan farq qiladi, xususan, saqlash bosqichining mavjud bo'lmaganligi bilan turistik xizmatlarning saqlanmasligi bozor konyunkturasini yaxshilab o'rganishni, talab va taklifiining mutanosibligini talab etadi, chunki xizmatlar talab bo'lmagunga qadar "omborlarda" turib qoladigan mahsulot emas.

Sezilmaslik. Turistik xizmatlar nomoddiy mahsulot bo'lib hisoblanadi. Ular ijtimoiy-madaniy yoki nomoddiy sohalarga tegishli bo'ladi, chunki iste'molchining ijtimoiy-madaniy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini jismoniy, etnik-intellektual, ma'naviy va boshqa ehtiyojlarini qondirish bo'yicha xizmatlarni ijro etuvchilar faoliyati aniqlaydi. Ularni xarid qilish vaqtida ko'rish yoki baholash mumkin emas. Bunday xizmatlar obyekt bo'lib shaxsan iste'molchi hisoblanadi,

Xizmat ko'rsatish va istemol jarayonini bir vaqtda sodir bo'lishi. Xizmatlar iste'molchi va ijro etuvchilarning o'zaro ta'siri natijasida tashkil topganligi sababli, turistik xizmatlarni ko'rsatish jarayoni iste'mol bilan birga parallel ravishda yuz beradi.

² O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligidagi videoselekt ma'ruzasidan .- 2018- yil 22-fevral

- sifatning doimiy emasligi. Xizmatlar sifati ko'p hollarda manbaning holati, uning malakaviy tajribasi, kayfiyatiga bog'liq bo'ladi.

Uchinchi Renessansni shakllantirish sharoitida turizm sohasini samaradorligini oshirish haqida gapirar ekanmiz, avvalo uchinchi renessans haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz lozim. "Renessans" so'zi fransuz tilidan olingan bo'lib "qayta tug'ilish" degan ma'noni bildiradi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, ta'lim-tarbiyada, san'atda, umuman, butun jamiyat hayotida uzoq muddatli turg'unlikdan keyin qayta jonlanib, tezlik bilan rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Ilk bor "Renessans" atamasi Yevropada o'rta asrlar mutaassibligidan keyin XV-XVI asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo'llanilgan. Renessans atalmish ushbu ijtimoiy hodisa o'zbek tilida Uyg'onish davri degan ma'noni anglatadi.

"Bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida so'z ketganda "Yangi O'zbekiston" iborasi tilga olinmoqda. Bu keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'yganimiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimizning e'tirofidir.


Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Chunki bugungi O'zbekiston – kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas», dedi davlat rahbari"³.

Turizmni rivojlantirish deyarli barcha iqtisodiy sub`ektlarga katta qulaylik olib keladi. O`z navbatida turistlar o`zlari xoxlagan mahsulot va xizmatlarni oladilar, turistik kompaniyalar va tadbirkorlar yuqori ish haqi va foydaga ega bo`ladilar, mintaqa esa o`z budjetini soliq tushumlari orqali to`ldiradi. Mintaqada turizm

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan.

taraqqiyoti, avvalombor, mahsulot va xizmatlarga bo`lgan qo`shimcha talabni shakllanishiga olib keladi. Turizmning yana bir o`ziga xos xususiyati mintaqaga tashrif buyuruvchi turistlarda mahsulot va xizmatlarga bo`lgan iste`mol talabini uyg`otadi. Ushbu talabni qondirish mintaqada faoliyat olib borayotgan sanoat, qishloq xo`jaligi, transport va boshqa kompaniyalar tomonidan amalga oshirish mumkin. Bu, o`z navbatida, ishlab chiqarish va xizmatlarning oshishiga va mintaqada qo`shimcha daromadlarning shakllanishiga olib keladi. Turistik faollik natijasida mahsulot va xizmatlarga paydo bo`ladigan talab ishlab chiqarishni tashkil etishni va mavjudlarining quvvatini oshirishni talab qiladi. Shu sababli turizm ma`lum darajada mintaqada real sektorni rivojlanishiga ta`sir ko`rsatadi. Iste`mol tovarlari ishlab chiqarishning tez sur`atlar bilan rivojlanishi uchun asosiy omil bo`lib mintaqada iste`mol tovarlari bozorini qondirish bilan bir qatorda tashqi talabning shakllanishi uchun xizmat qiladi.

Mintaqada turizmning rivojlanishi transport va aloqa xizmatlariga bo`lgan talabning oshishiga olib keladi. Ushbu holat milliy budjetning ko`payishiga, aloqa va ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarini yanada rivojlantirishga asos yaratadi. Turizmning mintaqadagi muhim vazifalaridan biri sifatida xorij davlatlar valyutasi tushumining ko`paytirishini aytish mumkin. Valyuta tushumlari turistik xizmatlar ko`rsatish va valyuta ayirboshlash orqali amalga oshiriladi. Turistlarning mehmonxona, restoran va boshqa turistik zonalarga, shuningdek, a transport xizmatlariga to`lanadigan pullari mintaqada iqtisodiyotini rivojlanishiga eng ko`p ta`sir ko`rsatadi. quyidagi chizmada turizmning mintaqada turli tarmoqlariga ta`siri ko`rsatilgan.



Uchinchi Renessansni shakllantirish davrida turizm sohasini samaradorligini oshirishda turizm sohasidagi kadrlar, ya'ni "inson omili" juda muhim, shuningdek raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ta'lim sohasi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, xalqaro turizm sohasida professional kadrlar tayyorlash tarmog'ini tashkil etish hamda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish bo'yicha respublikaning tashabbuslarini amaliy ro'yobga chiqarish, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning madaniy-gumanitar aloqalarini yanada rivojlantirish maqsadida Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-iyundagi PQ-3815-sonli qaroriga binoan Samarqand shahrida "Ipak yo'li" turizm xalqaro universitetini tashkil etildi. Bu oliygohda zamonaviy turizm industriyasida yetuk

va raqobatbardosh kadrlarni shakllantirish yo'lga qo'yildi. Lekin, xalqaro turizm tizimida yetuk kadrlarni yetishtirishda ba'zi muammolarga duch kelishimiz mumkin.

Masalan:

- Yosh avlodning turizm sohasi haqida yetarli ma'lumotga ega emasligi va shu sababli o'ziga muvofiq bo'lmagan sohalardan birini egallashi;
- Yosh kadrlarda tajribaning yetishmasligi;
- O'zbekiston bo'ylab turizm sohasida ish o'rinlarining yetishmasligi;
- Turizm sohasidagi xodimlar muhim ahamiyatga ega bo'lgan chet tillaridan faqatgina 1 yoki 2 tasini o'zlashtirganligi;

Yuqorida keltirilgan muammolar asosan kadrlarni tayyorlashni takomillashtirishga bog'liq bo'lib, agarda bosqichma-bosqich o'z yechimini topa olsa, O'zbekistonda xalqaro turizm sohasida izlanuvchan, yetuk, bir necha chet tilida ravon gapira oladigan, O'zbekistonning turistik salohiyatini rivojlantirishda asosiy rol o'ynay oladigan kadrlar sistemasini shakllantira olamiz.

Xulosa

Yangi turistik xizmatlar turini miqdor jihatidan ko'paytirish va xizmatlar sifatini oshirish bilan mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish quyidagi yo'nalishlardagi qator chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi:

- turizm tizimida sifatli marketing tadqiqotlarini tashkil etish;
- turistik ekskursiya xizmati ko'rsatishning turi va sifatini yanada rivojlantirish;
- tarixiy obida va yodgorliklarni ommaviy reklama qilish;
- yangi turistik makonlarni izlab topish va zamonaviy uslublar orqali tashkil etish;

- qo‘shimcha xizmatlar turlarini yanada ko‘paytirish va ularning sifatini yaxshilash;

- turizm bilan bog‘liq barcha tarmoqlar, ya‘ni maishiy xizmat, aloqa, transport va boshqa sohalar ishini izchil takomillashtirish;

- tizimli ravishda turizm sohasi rivojlangan mamlakatlarda xodimlarning malakasini oshirishni amalga oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Xalq so‘zi. 2020 yil 30 dekabr. No276. 2-bet.

2. Renan “Dialogues fragments philosophiques” – “Falsafiy dialoglar va parchalar”. F., 1876, r. VIII-IX.

3. Jahon falsafasi qomusi “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. Toshkent-1916, 2-jild, 510-bet.

4. Адам Мец. Мусульманский Ренессанс. Изд-во “Наука”. Главная редакция Восточной литературы. М., 1966, 144-145-бетлар.

5. Ma’naviyat yulduzlari. Mas’ul muharrir: M.M.Xayrullaev. T.: A.Qodiriy nomilagi xalq merosi nashriyoti, 1999., 321-b.